

YOSHLARDA GENDER ROLLAR IDENTIFIKATSIYASINING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raximova Gulhayo Alisherovna

Amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrası kata o'qituvchisi

Tel: +998949444224

E-mail: rahimovagulhayo172@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18678073>

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender rollar identifikatsiyasi, jamiyat tomonidan belgilangan erkaklik va ayollik rollarini qabul qilinishi, shaxsda o'z xulq-atvorini anglanishi, gender rollarga mos ravishda namoyon etishi yoritilgan.

Nazariy manbaalarga tayanib yoshlarda gender rollar identifikatsiyasi jarayoni ijtimoiylashuv institutlari ta'siri ostida shakllanishi, o'zini anglash tizimi, xulq-atvor strategiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasini belgilovchi muhim psixologik omil ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: gender, identifikatsiya, rol, xulq-atvor, ijtimoiy, shaxsiy anglash, ijtimoiy.

Annotation: this article examines the specificity of gender-role, the acceptance by society of certain male and female roles, the perception of behavior in a person, its manifestation in accordance with gender roles.

In particular, based on theoretical sources, it is based on the fact that the process of gender-role identification in young people is formed under the influence of socialization institutions, is an important psychological factor that determines the system of self-awareness, behavioral strategies and the level of social adaptation.

Keywords: gender, identity, role, behavior, social, personal perception, social.

Аннотация: в этой статье рассматривается гендерно-ролевая идентичность, принятие обществом определенных мужских и женских ролей, осознание своего поведения в человеке, его проявление в соответствии с гендерными ролями.

В частности, опираясь на теоретические источники, обосновано, что процесс гендерно-ролевой идентичности у молодежи формируется под влиянием институтов социализации, является важным психологическим фактором, определяющим систему.

Ключевые слова: пол, идентичность, роль, поведение, социальное, личностное восприятие, социальное.

Kirish: Jinsiy identifikatsiya — bu insonning o'zini anglashining bir qismi bo'lib, u erkak va ayol madaniy ta'riflari kontekstida o'zini tajriba qilishini tasvirlaydi. Jinsiy identifikatsiya tushunchasi amerikalik psixoanalitik R. Stoller tomonidan 1963-yilda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro Psixoanalitik Kongressda kiritilgan[1]. R. Stollerning ta'kidlashicha, dastlab bu tushuncha shaxsning biologik jinsini anglashi, erkak va ayol qarama-qarshiligi bilan bog'liq ijtimoiy tasniflash jarayonlarini o'zgartirdi (1968). Keyinchalik, bu tushuncha ijtimoiy konstitutsiya mahsuli sifatida gender identifikatsiyasini tushunish bilan bog'liq o'zgarishlarga olib keldi [2].

Gender rollar identifikatsiyasi, gender hulq-atvorni tarkib topishi ijtimoiylashuv jarayonida amalga oshirilishi bir qator tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Jumladan, S. Qodirov ishlarida bolalar kichik yoshdan boshlab an'anaviy gender rollarga mos ravishda tarbiyalanishi, o'g'il bolalar kuchli, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatilishi, ular oilaning boshlig'i sifatida tayyorlanishi qayd etilgan. Qiz bolalar esa mehribonlik, sabr-toqat va oilaviy qadriyatlarini

hurmat qilishga o'rgatiladi. Bu tarbiya jarayoni bolaning shaxsiyati va ijtimoiy rolini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, deb qaralgan. Shuningdek, bu jarayon psixologik jihatdan bolalarning o'zini anglashiga, o'z jinsiga oid identifikatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi, degilgan [3].

Bizningcha, hozirgi zamon shaxsiyat va ijtimoiy rolini shakllantirish, gender rollarining tarkib topishida o'g'il bolalarga ham, qiz bolalarga ham birdek talablar qo'ymoqda va har ikki jins vakillariga tegishli hisoblangan gender sifatlarini o'zlashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

N. Islomova ishlarida gender rollar modeli oilada kattalarning xulq-atvorini kuzatish orqali qabul qilinishi, bu jarayon ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan izohlanishi aytilgan. Bolalar o'z jinsiga mos keladigan xatti-harakatlarni o'rganadi va shu tarzda jamiyatda qabul qilingan gender rollarini o'zlashtiradi. Shu sababli, oiladagi gender rollari bolalarning shaxsiyati va ijtimoiy roli shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Agar oilada gender rollari qat'iy va an'anaviy bo'lsa, bolalar ham shu printsiplarga moslashadi. Aksincha, agar oilada gender rollari moslashuvchan bo'lsa, bolalar ham yanada erkinroq va kengroq ijtimoiy rollarni qabul qilishga tayyor bo'ladilar, deyilgan [4].

I.S. Kon ishlarida gender rollarini farqlashi, an'anaviy tizimi masalasi tarixiy jihatdan ko'rib chiqilgan bo'lib, erkaklik va ayollik stereotiplari bilan bog'liq quyidagi xarakterli xususiyatlar bilan ajratilgan:

1) erkak va ayol faoliyati va shaxsiy fazilatlarini juda keskin farq qilib, qarama qarshi qutbga o'xshar edi;

2) bu farqlar din yoki tabiatga havolalar bilan muqaddaslangan va daxlsiz ko'rinar edi;

3) erkak va ayol funktsiyalari shunchaki bir-birini to'ldiruvchi emas, balki ierarxik ham edi; ayollarga qaram, bo'ysunuvchi ro'l berilgan, shuning uchun hatto ayolning ideal qiyofasi ham erkak manfaatlarini nuqtai nazaridan qurilgan.

Chindan ham, bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgardi. Mehnatning gender taqsimoti avvalgi qat'iyligini yo'qotdi, faqat erkaklar va faqat ayollar kasblari soni keskin kamaydi va oilada va ishda erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar asosan tenglashdi. Ko'pgina ijtimoiy rollar va kasblar endi umuman "erkak" va "ayol" roliga bo'linmasligi jamoatchilik tomonidan persepsiyalanib bormoqda. Bu holat erkaklar va ayollar o'rtasidagi birgalikda ta'lim va umumiy mehnat faoliyatida xulq-atvor normalari va psixologiyasidagi an'anaviy farqlarni tenglashtirilishida ko'rinmoqda.

I.S. Kon tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, asosan "erkaklarga xos" hisoblangan kasblarda ishlaydigan ayollar ko'proq erkaklarcha fikrlash uslublari va xarakter xususiyatlarini namoyon etadilar, shu o'rinda, kasblar individual xususiyatlarga ko'ra tanlanadimi yoki ular bajaradigan ishlari bilan shakllanadimi degan savolga I.S. Kon albatta, ikkalasi ham sodir bo'lishini asoslaydi, lekin qanday nisbatda, Bu qaytarib bo'lmaydigan va umuman progressiv ijtimoiy o'zgarishlar, shuningdek, erkaklik va ayollikning madaniy stereotiplarida o'zgarishlarga, kamroq farqlanib, qutblanishga olib kelishini ta'kidlaydi.

I.S. Konning ta'kidlashicha, erkaklar feminizatsiyasi xavfi va ayollarning maskulinizatsiyasi-erkaklashuvi kabi sodir bo'layotgan holat aslida, gender rollarining an'anaviy tizimi va ularga hamroh bo'lgan madaniy stereotiplarning buzilishidir [5]. I.S. Konning madaniy stereotiplarning buzilishi borasidagi fikrlari haqiqatga yaqinligi bilan ahamiyatli bo'lib, mavjud muammolarni tadqiq etish va psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Xulosa. Mavzuga doir o'rganilgan ilmiy manbaalarga tayanib aytishimiz mumkinki, psixologik jihatdan, gender rollarining qat'iyiligi ba'zan yoshlar uchun cheklovlar yaratadi. O'z hissiyotlarini ifoda etishda qiynalishi, bilmasliklari esa o'zining ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarini namoyon etishda cheklanishi yoki nomuvofiq harakatlarni sodir etishga, oilaviy munosabatlarda nizolarga, stress manbaini chuqurlashuviga sabab bo'ladi. Oilaning muhim vazifalaridan biri bu, har bir a'zo o'zini erkin va qadrlangan his qilishi uchun shar-sharoit yaratilishidir, bu o'z o'rnida zamonaviy dunyoda etnopsixologik, diniy va madaniy qadriyatlarni yangi ijtimoiy sharoitlarga muvofiqlashuvi kerakligini tasdiqlaydi.

Demak, yoshlarda gender rollar identifikatsiyasi muammosini o'rganish va qayta ko'rib chiqish jamiyatda va oilada sog'lom psixologik muhit yaratilishiga asos bo'ladi.

References:

1. Robert Stoller: A Contribution to the Study of Gender Identity¹
2. Socio-Cultural Analysis of Gender Relations. 1998. Социокультурный анализ гендерных отношений. Саратов, 1998. Большая российская энциклопедия.
3. S. Qodirov. "O'zbek oilasida ayol va erkak rollari: madaniy va psixologik aspektlar". Toshkent" Fan va Texnologiya. (2020).
4. N. Islomova. "Gender psixologiyasi va oilaviy munosabatlar" Samarqand Davlat Universiteti. (2019).
5. И.С.Кон. Психология половых различий (2006).